

## 6-dars

### Darsning mavzusi: Talaffuzi va yozilishi farq qiladigan undoshlar

**Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarni o'zbek tilida mavjud 29 ta harf va 30 ta tovush, unli va undosh harflarning o'ziga xos xususiyatlari, jarangli va jarangsiz tovushlarning farqi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; talaffuzi va yozilishida farq qiladigan so'zlar imlosi ustida ishlash; talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zлarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Darsning turi:** o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhabat, mustaqil ish metodi, "Diqqat bolalar!" ta'limiy o'yini.

**Darsning jahozi:** mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, texnik ilovalar.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

#### II.O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshirish. Uyga berilgan 30-mashq o'quvchilar bilan birgalikda tekshiriladi, birgalikda tahlil qilinadi.

## **Husnixat daqiqasi: Tabiat – bizning onamiz**

31-mashqda berilgan matn o'quvhilar bilan o'qiladi, mazmuni haqida suhbatlashiladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar talaffuzida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tovush o'zgarishlari aytildi.

## **IV. Yangi mavzu bayoni:**

Mavzu o'quvchilarga taqdimot yordamida tushuntiriladi.

*Talaffuzda ayrim so'zlarning oxirida kelgan jarangli undosh o'rniغا uning jarangsiz jufti eshitiladi: kitob, omad, ahd.*

*Bunday so'zlar oxirida kelgan jufti bor undosh tovushning yozilishini tekshirish uchun undoshdan so'ng unli qo'shib aytildi: kitob – kitobi, omad – omadi, ahd – ahdi.*

**32-mashq** yozma bajariladi. Aytishi va yozilishida farq qiladigan so'zlar unli qo'shib aytilan holda juftlab talaffuz etiladi va ko'chirish topshirig'i beriladi: *maktab-maktabi, odob-odobi, rubob-rubobi, maqsad-maqsadi, javob-javobi*.

## **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**33-mashq** o'quvchilarning yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish imkonini beradi. So'z oxirida tushirib qoldirilgan undoshlarni to'g'ri qo'yib, ko'chirish va ular ishtirokida uchta gap tuzish talab etiladi.

**So'zlar:** Savob, tabib, odob, yalpiz, zarb, avlod, ijod, ozod, mayiz, mard.

**34-mashqda** taqdim etilgan she'r "*Diqqat bolalar!*" o'quvchilar bilan birgalikda o'qiladi. Talaffuzi va imlosida farq qiladigan undoshlar aniqlanadi.

*Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob,*

*Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.*

*Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob,*

*Biror harf tanimay tursaydim loqayd.*

**35-mashq** yozma bajariladi. "*Kitob, mening do'stimsan*" mavzusida matn tuzilib, unda ishtirok etgan talaffuzi va imlosi farqlanuvchi so'zlar aniqlanadi.

**36-mashq.** She'r ifodali o'qilib, uning mazmuni haqida suhbatlashiladi. Aytishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlari bor so'zlar aniqlanadi.

*Tog'dan oftob ko'rinsa,*

*Yayrab kutib olamiz.*

*Nurlarini qo'l bilan*

*Go'yo tutib olamiz.*

Intilamiz quyoshga  
Qaddimizni tiklaymiz.  
Aziz mehmon kelganday,  
Kel deya tabriklaymiz.

*Kutib* oлanimizdan  
Chiroyi ochiladi.  
Sevinchlari atrofga  
Nur bo'lib sochiladi.

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunidao'quvchilar joriy darsdao'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgano'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

**38-mashq** sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.